

**ALISHER NAVOIY RUBOIYLARI VA QIT'ALARINI O'QITISHDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR****Abdullayeva Dildora Shokir qizi**

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

dildorashokirqizi96@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola Alisher Navoiy ruboiylari va qit'alarini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada, Navoiy ijodining ta'limda qanday o'rni borligi va uning ruboiylari hamda qit'alarining o'quvchilarga qanday ta'sir qilishi masalalari ko'rib chiqilgan. Alisher Navoiy asarlarini o'qitish nafaqat adabiy bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, shu jumladan, o'qitish metodlari, integratsiya, loyiha asosida o'qitish kabi innovatsion usullarni ta'kidlab, ularning Navoiy asarlari orqali ta'lim jarayonini qanday samarali tashkil etish mumkinligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ruboiylar va qit'alar yordamida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, mustaqil tahlil qilish va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga erishish mumkinligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlari: Qit'a, ruboiy, pedagogik yondashuvlar, zamonaviy pedagogika, interaktiv o'qitish, kreativ fikrlash, integratsiya, innovatsion metodlar, loyiha asosida o'qitish, o'qitish metodikasi.

Abstract: This article is devoted to the analysis of modern pedagogical approaches in the process of teaching Alisher Navoi's rubai and qit'a. The article examines the role of Navoi's works in education and the impact of his rabies and verses on students. Teaching



the works of Alisher Navoi is an important tool not only for strengthening literary knowledge, but also for forming spiritual and moral values in students.

The article emphasizes modern pedagogical approaches, including teaching methods, integration, project-based teaching, and how to effectively organize the educational process through Navoi's works. Also, it is shown that with the help of rubaiyy and khytan, it is possible to develop students' creative thinking, independent analysis and increase their social responsibility.

Key words: qit'a, rubai, pedagogical approaches, modern pedagogy, interactive teaching, creative thinking, integration, innovative methods, project-based teaching, teaching methodology.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу современных педагогических подходов в процессе преподавания рубая и хита Алишера Навои. В статье рассматривается роль произведений Навои в образовании и влияние его бешенства и стихов на учащихся. Преподавание произведений Алишера Навои является важным инструментом не только укрепления литературных знаний, но и формирования духовно-нравственных ценностей у учащихся.

В статье акцентируются современные педагогические подходы, в том числе методы обучения, интеграция, проектное обучение, а также способы эффективной организации образовательного процесса посредством произведений Навои. Также показано, что с помощью рубайи и китъа на можно развивать творческое мышление учащихся, самостоятельный анализ и повышать их социальную ответственность.

Ключевые слова: Китъа, рубайи, педагогический подходы, современная педагогика, интерактивное обучение, творческое мышление, интеграция, инновационные методы, проектное обучение, методика обучения.

Alisher Navoiy o'zbek va jahon adabiyotining buyuk shoiridir. Uning ruboiy va qit'alarida chuqur falsafiy va ma'naviy ma'nolar mujassamlangan. Ushbu asarlar



o'quvchilarga nafaqat adabiyot, balki hayotga bo'lgan qarashlarni ham shakllantiradi. Navoiy ruboiylari va qit'alarini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar qanday qo'llanilishi kerakligi haqida tasavvurga ega bo'lishimiz lozim. Ta'lim jarayonida Navoiy asarlarini o'rganishning muhimligi va pedagogik yondashuvlar, metodlar va vositalar haqida batafsil tahlil qilinadi.

Alisher Navoiy ijodi: Navoiy nafaqat adabiy asarlar yaratgan, balki o'z davrining ijtimoiy, ma'naviy va falsafiy muammolariga javoblar bergan. Uning ruboiylari va qit'alarida insoniy qadriyatlar, axloq, vatanparvarlik, ilm va ma'rifat haqida chuqur fikrlar mavjud.

Uzliksiz ta'lim bosqichlarida o'quvchilar adabiyot olamiga “O'qish kitobi” orqali kirib keladilar. So'ng bosqichma bosqich, asta-sekinlik bilan o'z dunyoqarashi, tafakkuri, badiiy so'z sehrini anglashga bo'lgan iqtidoriga ko'ra adabiyotning cheksiz ummonlariga g'arq bo'ladilar. Adabiyotni sevishi, o'quvchida unga mehr muhabbat uyg'otishda fan o'qituvchilarining o'zni muhim ahamiyat kasb etadi [1. 7-bet].

Ta'limdagi o'zni: Navoiyning asarlari ta'lim jarayonida nafaqat estetik ma'nolarni ochib beradi, balki o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning ijtimoiy mas'uliyatini, ma'naviyatini oshiradi. Shu bois, bu asarlarni o'qitish jarayoniga jiddiy yondashish lozim.

Pedagogik yondashuvlar tushunchasi: Pedagogika – bu ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganuvchi fan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa o'quvchilarning ehtiyojlari, imkoniyatlari va qiziqishlariga mos ravishda ta'limni tashkil qilishni anglatadi. Bu yondashuvlar, shuningdek, o'quvchilarning kreativ fikrlashini, mustaqil ishlashini va o'rganish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashga yordam beradi.

Individual yondashuv: Navoiy asarlarini o'rganishda har bir o'quvchining o'ziga xos yondashuvini ta'minlash zarur. O'quvchilarning darajasi va qiziqishiga qarab, darslarni turli metodlar bilan olib borish muhim. Misol uchun, ayrim o'quvchilar ruboiylar orqali Navoiy ijodini his qilsa, boshqalari esa uning qit'alaridagi axloqiy masalalarni ko'proq o'zlashtirishi mumkin.



El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni.
Fe’l ichra ulus baloyi joni bil oni,
Olam elining yamon-yamoni bil oni [2. 71-bet].

Integratsiya: Navoiy asarlarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish ham muhim. Masalan, ruboiy va qit’alar yordamida tarix, falsafa va etika fanlaridan saboqlar berish mumkin. Bu yondashuv o’quvchilarga turlicha fikrlash hamda o’z munosabatini ayta olish ko’nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Ko’b oltun, kumush sori qo’l sunmog’il
Ki, tutsang kafingni qaro rang etar.
Ko’ngulda dog’i maylini asrama,
Ki ko’nglungni dog’i ham ul zang etar [3. 127-bet].

Interaktiv metodlar: Navoiy asarlarini o’qitishda interaktiv metodlardan foydalanish muhim. O’quvchilarni guruhlariga bo’lib, ularni o’zaro muhokama qilishga, fikr almashishga undash, Navoiy ruboiylarining mazmunini tahlil qilishga imkon beradi.

Kamol et kasbkim, olam uyidin –
Sanga farz o’lmag’ay g’amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o’tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq [4. 126-bet].

Vizuallashtirish: Navoiy qit’alaridagi tasvirlarni va ramzlarni vizual yordamlar orqali tushuntirish ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, qit’alaridagi tasvirlarni san’at va tasviriy adabiyot bilan bog’lash.

Bugungi globallashuv davrida barcha fanlar qatorida adabiyot fanini o’qitishning texnologik usullari kundan kunga rivojlanib borayapti. Xususan, axborot kompyuter texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, internet va boshqa elektron tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish ta’lim oluvchilarning badiiy matnni anglashlarida sezilarli natijalarni bermoqda [5. 85-bet].



Multimedia: Zamonaviy texnologiyalar yordamida Navoiy asarlarini o'rganishda video, audio va interaktiv ilovalar yordamidan foydalanish mumkin. Bu metodlar o'quvchilarga asarlarning chuqurroq mazmunini anglashga yordam beradi.

Adabiyot o'qitish metodikasi ham boshqa fanlar kabi o'zgaruvchan, rivojlanish xususiyatiga ega. Qolaversa, bugun zamonaviy o'zbek adabiyoti shakl va ham mazmun jihatdan rivojlanib, sharq va g'arb tajribasiga asoslangan o'ziga xos badiiy asar namunalari yaratilmoqda. Bugungi zamonaviy adabiyot jahoniy tafakkur natijasi o'laroq yaratilayotgan ekan, uning o'ziga xos badiiy-estetik qimmati va san'at darajasidagi xususiyatlarini jahon adabiy ta'limining ibratli nazariyalari, ilmiy metodologik qarashlari asosida kashf qilish lozim [6. 13-bet].

Bundan tashqari Alisher Navoiy ruboiylari va qit'alarini o'qitishda foydalanuvchi pedagogik usullar haqida ham to'xtalib o'tamiz.

Dialogik ta'lim: Navoiy asarlarini o'qitishda o'quvchilar bilan ochiq muloqot o'rnatish zarur. Darslarda o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning fikrlarini tinglash va baholash metodlari qo'llanilishi kerak. Bu o'quvchilarni o'z fikrini aniq ifodalashga o'rgatadi.

Johilki, hasad bo'lg'ay aning jahlig'a zam,

Nur el ko'zidin anglasa o'z ko'zida kam.

Ko'zlarni olishmoqqa chekib tig'i sitam,

El ko'zini ham o'ygay-u, o'z ko'zini ham [7. 71-bet]

Tahlil va yoritish: Navoiy ruboiylarida har bir so'z va jumla o'z ma'nosini tashiydi. Shuning uchun, o'quvchilarga har bir qit'a, ruboiylarni tahlil qilish, ma'no va ramzlarni yoritish orqali o'rgatish muhim hisoblanadi.

Loyiha asosida o'qitish: O'quvchilarga Navoiy ruboiylarini turli mavzular bilan bog'lab, loyihalar yaratish imkonini berish. Loyiha uchun quyidagicha mavzular tavsiya etiladi:

“Inson va tabiat: Navoiy ruboiylarida tabiatning roli”

O'quvchilar Navoiy ruboiylaridagi tabiat tasvirlari va uning inson hayotidagi o'rnini tahlil qilib, tabiat va insonning o'zaro munosabatlarini yoritadigan loyiha



yaratadilar. Bundan ko'zlangan maqsad: tabiat va inson munosabatlarini, shuningdek, tabiatni asrash zaruratini tushunish.

“Ma'naviyat va axloq: Navoiy ruboiylaridagi insoniy qadriyatlar”

O'quvchilar Navoiy ruboiylarida uchraydigan axloqiy masalalarni o'rganib, o'zlarining ma'naviy qadriyatlarini shakllantiradigan loyiha yaratadilar. Maqsad: Navoiy ruboiylaridan olingan ma'naviy darslarni kundalik hayotda qo'llash, axloqiy tanlovlarni o'rganish.

“Ilm va ma'rifat: Navoiy ruboiylarida bilimga bo'lgan e'tibor”

O'quvchilar ilmning, bilimning va ma'naviyatning ahamiyatini Navoiy ruboiylari orqali tushunib, ilm va ma'rifatni targ'ib qiladigan loyiha yaratadilar. Maqsad esa ilmga nisbatan izlanishlar va ehtiyojni anglash, bilimning jamiyatdagi o'rni haqida loyihalar ishlab chiqish.

“Vatanparvarlik: Navoiy ruboiylarida milliy qadriyatlar”

O'quvchilar Navoiy ruboiylaridagi vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni o'rganib, o'z milliy merosimizga hurmatni oshirishga qaratilgan loyiha yaratadilar. Maqsad: Vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va madaniyatni rivojlantirish, vatan va xalqni sevishni targ'ib qilish.

O'quvchilar Navoiy ruboiylarida ko'rsatilgan hayotning maqsadi, baxt va ma'naviyatni o'rganib, o'z dunyoqarashlarini shakllantiradigan loyiha yaratadilar. Bundan ko'zlangan maqsad: hayotning maqsadi va baxtni qidirish, insonning o'zini anglash va dunyoqarashini rivojlantirish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy ruboiylari va qit'alarining o'qitilishi nafaqat o'quvchilarning adabiy bilimlarini oshiradi, balki ularning ma'naviyatini ham shakllantiradi. Navoiy asarlari orqali ta'limda ma'naviy o'sish va shaxsiy rivojlanishga erishish mumkin. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar yordamida esa Navoiy asarlarini o'qitish o'quvchilarning kreativ fikrlashini, mustaqil qarorlar qabul qilishini va hayotdagi o'rinlarini anglashlarini ta'minlaydi. Alisher Navoiy asarlarini o'qitishda zamonaviy metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarga yanada samarali ta'lim



berish, ularning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. 6-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. 7-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. “Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma)”. – Toshkent 2020.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. “Adabiyot o'qitish metodikasi” (an'anaviylikdan zamonaviylikka) uslubiy qo'llanma. – Toshkent 2020.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi birinchi kitob. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi ikkinchi kitob. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
7. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh O'zbek adabiyot o'qitish metodikasi – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
8. www.ziyo.uz.com
9. www.ziyonet.uz